

Yarmatov Sharofiddin Choriyevich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
E-mail: sharofyarmatov1976@mail.ru

INSON KAPITALI INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

Annotatsiya

Maqolada inson kapitali singari iqtisodiy toifani ishlab chiqish va o'rganish, milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va barqaror o'sishiga erishish uchun mamlakat hududlari darajasida innovatsion muhitni yaratish va shakllantirish, inson kapitaliga e'tiborning pasayishi, ta'lim tizimidagi uzilishlar oqibatida samaradorlikning keskin pasayib ketishi, sarflangan sarmoyaning foyda keltirish ko'rsatkichi past ko'rsatkichni tashkil etishidagi mavjud muammolar mavjud muammolari nazariy hamda amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoyalar samaradorligini oshirish bo'yicha muhim xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *Inson kapitali, ishchi kuchi, bilim, ko'nikma, innovatsion o'yalar, ta'lim, inson kapitaliga sarmoya, oliy ta'lim, iqtisodiy o'sish.*

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

В статье рассматриваются существующие проблемы развития и изучения такой экономической категории, как человеческий капитал, создание и формирование инновационной среды на уровне регионов страны для достижения ускоренного развития и устойчивого роста национальной экономики, снижение внимания к человеческому капиталу, резкое снижение эффективности в результате сбоев в системе образования, низкий показатель рентабельности вложенных инвестиций. подробно проанализировано. Также даны важные выводы и предложения по повышению эффективности инвестиций в человеческий капитал.

Ключевые слова: *Человеческий капитал, рабочая сила, знания, навыки, инновационные идеи, образование, инвестиции в человеческий капитал, высшее образование, экономический рост.*

HUMAN CAPITAL IS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF AN INNOVATIVE ECONOMY

Abstact

The article discusses the development and study of such an economic category as human capital, the creation and formation of an innovative environment at the level of the country's territories in order to achieve rapid development and sustainable growth of the national economy, a decrease in attention to human capital, a sharp decrease in efficiency as a result of interruptions in the educational system, Important conclusions and proposals have also been made to improve the efficiency of investments in human capital.

Keywords: *human capital, labor force, knowledge, skills, innovative ideas, education, investment in human capital, higher education, economic growth.*

Kirish

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda jamiyat oldiga qo'yilayotgan talablar ham kun sayin ortib bormoqda. Har bir davlat o'z strategik maqsadlariga erishish, yuksak natijalarga qayd etish, iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak saviyali kadrlar, mutaxassislarining o'rni beqiyos. Bu natijalarga erishish, yuksak salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj o'z-o'zidan qondirilmaydi. Buning zamirida inson kapitali, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

Jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlarida moddiy omillar nomoddiy omillarga nisbatan ustunlik qilgan bo'lsa, so'nngi yuz yilga kelib iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti bo'lgan insonlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ammo, hozirgi rivojlanish sharoitida bir qator iqtisodchilarning fikricha inson resurslari tizimida islohatlar amalga oshirish kerakligini ko'rsatmoqda.

Bu borada berilayotgan keng imkoniyatlar va imtiyozlar inson kapitali singari iqtisodiy toifani ishlab chiqish va o'rganish imkonini beradi. Inson kapitali uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki inson kapitali kontseptsiyasi ta'lim, fan va texnika, sog'liqni saqlash, mehnat resurslarini taqsimlash tizimini yanada rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatda kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri tanlash, inson kapitalini rivojlantirish va undan foydalanishning eng ustuvor yo'nalishlarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bu esa rivojlanish uchun shu kabi iqtisodiy strategiyani shakllantirishga zamin yaratadi. Uning asosiy markazida esa bilim, ko'nikma, innovatsion g'oyalar to'plangan shaxs turadi.

Bu ayniqsa O'zbekiston iqtisodiyoti uchun to'g'ri keladi, uning rivojlanishini asosan tabiiy resurslarni jalb qilish va foydalanish bilan bo'liq bo'lib, unda inson kapitali doimo to'liq ishtirok etmaydi. Zero tabiiy resurslar cheklanganligini yodda tutish lozim.

Prezidentimizning "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizning bundan buyon innovatsion rivojlanish yo'li va innovatsion iqtisodiyotga o'tishini ko'zda tutadi va bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasini oshirib, innovatsion jihatdan taraqqiy etishini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish mazkur strategiyaning bosh maqsadi sifatida ko'rsatildi.

Hozirgi kunda innovatsiyalardan keng foydalanish jamiyat hayotining turli sohalarni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu esa ushbu sohalarda chuqur o'zgarishlar

yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bu jarayonda iqtisodiy o'sishning barqarorlik kasb etishida inson omili asosiy va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bozor sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ro'y berayotgan innovatsion jarayonlar, islohatlar natijasida iqtisodiy nazariyaning inson kapitali shaklida amalga oshirilayotgan insoniy qobiliyatlarga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Sh bilan birga raqobatbardoshligi faqatgina moddiy aktivlar bilan belgilanmagan innovatsion jamiyatni shakllantirishga olib keladi va bu innovatsion-intellektual rivojlanish darajasi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va barqaror o'sishiga erishish uchun mamlakat hududlari darajasida innovatsion muhitni yaratish va shakllantirish lozim. Hududlarda innovatsion muhitni shakllantirishda uning joylashuvi, milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, ayni davrdagi holati, inson resurslarining rivojlanganlik darajasi va ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion faolligiga e'tibor qaratiladi.

Mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda tabiiy resurslardan uzluksiz foydalanish samarali yechim bo'la olmaydi. Mamlakat aholisining muntazam o'sib borishi ehtiyojlarning ortishiga sabab bo'lishini va tabiiy resurslar cheklanganligini inobatga oladigan bo'lsak, inson kapitalini rivojlantirmay turib mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy holati qanday bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va strategik maqsadlarga erishish uchun mavjud barcha resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Inson kapitaliga investitsiya kiritish va uni samarali yo'naltirish, ta'lim sifatini yaxshilash orqali ushbu muammolar echimini topish mumkin bo'ladi.

Inson kapitali o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi va rivojlanmaydi, u doimiy ravishda davlat tomonidan rivojlantirilib borilishi lozim. Chunki har qanday inson kamoloti uchun sarflangan investitsiya va sarmoya jamiyat rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Inson kapitali uchun sarmoya kiritilayotganda uning nafaqat ma'lum bir insonga va yo'nalishga qaratilishi nazarda tutiladi, ammo uning boshqalarga ham tarqalishi omili inobatga olinmaydi.

Masalan, ota-onalar o'z farzandining sog'ligini o'ylagan holda uni davolash haqida qaror qabul qilganda avvalo, uning salomatligi yaxshi bo'lishi uchun qayg'uradi. Biroq bu harakati bilan boshqa insonlarga kasallik yuqushi xavfini kamaytirishini o'yamaydi.

Yoki farzandning yaxshi bilim va tarbiya olishi uchun pul sarflayotgan ota-ona bu orqali kelajakda mamlakat rivoji, jinoyatchilikning kamayishi kabi ijtimoiy holatlarga o'z ta'sirini ko'rsatayotgani haqida o'ylamaydi.

Har bir ota-ona farzandining kelajakda sog'lom, bilimli, barkamol inson bo'lib etishishi uchun sarmoya kiritishni istaydi, albatta. Ammo bunga barchaning qurbi etmasligi mumkin. Yoki ba'zi insonlarda shunday xislat borki sarflagan sarmoyasining qisqa fursatda qaytishini istaydi. Ammo, inson kapitaliga sarflangan sarmoya esa o'z samarasini berishi uchun o'zoq muddat talab etiladi.


Shu bilan birga "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning

tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich 4 barobarni tashkil etadi. ...inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun esa barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart... Umumiy o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim." [2].

Tahlillarga ko'ra inson kapitalini rivojlantirishda, Amerika Qo'shma Shtatlarida 3 yoshdan 22 yoshgacha o'rtacha 210 ming dollar sarflanar va natijada 3,1 mln. dollar foyda keltiriladi, Janubiy Koreyada 130 ming dollar sarflanar va 2,1 mln. dollar foyda keltiriladi ekan. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlarda inson kapitaliga sarflangan har 1 so'm 13 barobar hisobida qaytadi. O'zbekistonda esa 19 ming dollar sarflanib, buning evaziga 77 ming dollar foyda olinar ekan. [3].

Mamlakatimizda ma'lum davr davomida inson kapitaliga e'tiborning pasayishi, ta'lim tizimidagi uzilishlar oqibatida samaradorlikning keskin pasayib ketishiga sababchi bo'ldi. Natijada sarflangan sarmoyaning foyda keltirish ko'rsatkichi past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Oldimizda turgan bu kabi muammolarning yechimini topish uchun inson kapitaliga bo'lgan e'tiborni keskin oshirishimiz, bu yo'lda barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart. Ayniqsa maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim."



1-rasm. Inson kapitaliga sarflangan mablag' va uning foydasi (mamlakatlar kesimida)

Izoh: Keltirilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi)

Jahon banki prezidenti Jim Yon Kimning ta'kidlashicha, "Ayni paytda bolalikda kognitiv va ijtimoiy-hissiy imkoniyatlarda yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarni balog'at yoshiga yetganda tuzatish qimmatga tushadi. Shuning uchun hukumat tomonidan inson kapitalini bola hayotining dastlabki 1000 kunligida rivojlantirish iqtisodiy samara beradi".

Bizning oldimizda turgan bir qator muammolarni hal qilish uchun inson

kapitaliga bo'lgan e'tibor keskin oshirilishi zarur. Ayniqsa ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, bu yo'lda barcha imkoniyatlarni ishga solish lozim.

2022-yil – “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini tashkil etish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan edi. Qabul qilingan yangi taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo'nalish bo'yicha “Inson qadri uchun – 100 ta maqsad” belgilangan. Ular orasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga oid vazifalar bor [1].

Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblangan inson kapitali ham unga mos bo'ladi. Inson kapitali rivoji shaxsning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liq. Inson aql-idrok sohibi bo'lgani bois, real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o'rab turgan ijtimoiy muhitda ro'y berayotgan jamiki voqealar ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ma'lum davr davomida inson kapitaliga e'tiborning pasayishi, ta'lim tizimidagi uzilishlar oqibatida samaradorlikning keskin pasayib ketishiga sababchi bo'ldi. Natijada sarflangan sarmoyaning foyda keltirish darajasi past ko'rsatkichni tashkil etdi. Uni samaradorligini oshirish uchun bir qator tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Masalan Rossiya iqtisodiyotining pozitsiyalarida inson kapitali, mehnati, ishchi kuchining sifatiga alohida urg'u berilgan;

- ishchi kuchining sifatini oshirishga va uning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida korxonaning raqobatdoshligiga ta'sirini kuchaytirishga ta'sir qiluvchi tasniflangan omillar (ta'limga, investitsiyalarni jalb qilishga, xodimlarning sog'lig'i, innovatsiyalar va boshqalarga);

- davlat darajasida, insonning ko'payish sohasidagi nodavlat korxonalari va muassasalarini jalb qilgan holda, davlat, ishbilarmon doiralar, jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning modellarini yaratish orqali inson mehnatining barqaror ko'payishining institutsional mexanizmini davlat darajasida shakllantirish zarurati asoslandi; kadrlarga bo'lgan ehtiyojning davlat va mintaqaviy prognozlarini tuzish; bandlik xizmati, uning funktsiyalari va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish;

O'tgan davrlar davomida mamlakat aholisining oliy ma'lumot bilan qamrab olinganlik darajasining pastligi, oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalarning kamligi, tanlovning o'ta yuqoriligi ko'plab salbiy holatlarni ham yuzaga keltirdi [5]. Kasb hunar kollejlari bitiruvchilarining maksimal darajada oliy ta'lim olish imkoniyati bilan qamrab olinmaganligi, va yo'nalishi bo'yicha ish bilan ta'minlanish darajasining pastligi o'quvchilarga bilim olishga bo'lgan qiziqishning pasayib ketishiga va bu o'z navbatida ta'lim berish sifatiga ham ta'sirini ko'rsatdi. Natijada oliy ma'lumotga ega bo'lish maqsadida bo'lgan kollejlarning ma'lum qism bitiruvchilari juda yuqori ball to'plash maqsadida qo'shimcha repititorlik markazlariga murojaat qilish darajasi keskin oshdi. Bu jarayon, ya'ni ta'lim olishga intilish ijobiy fikr uyg'otadi albatta. Ammo shunga e'tibor berish kerakki, ta'lim oluvchilarning asosiy maqsadi yaxshi ta'lim olib uni kelajakda jamiyat farovonligi uchun qo'llash emas, balki oliy o'quv yurtiga kirish bo'lib qoldi. Bunga sabablardan

yana biri test savollarining murakkabligi hisoblanadi. Ushbu murakkablik maktab darsliklarini yozish jarayonida ham inobatga olinadi va o'quvchilarga tavsiya qilinadigan darsliklar juda murakkab va tushunarsiz bo'lib qolmoqda.

O'quvchilar o'qishga kirish uchun ushbu bilimlarni yod olishni afzal bilmoqda. O'rgangan bilimni esa amaliy jarayonda qachon va qaysi sohada, ishlab chiqarish jarayonida qo'llashda muammolarga duch keladi.

Biz inson kapitalini samarali shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, albatta birinchi navbatda bilim berish vositalari jahon standartlari darajasida bo'lishi lozim. Ayniqsa o'quvchi olayotgan bilimlarini qayerda va nimaga qo'llay olishini bilishi shart.

Bu jarayonda salbiy holatlardan yana biri shundaki talaba bo'lishni maqsad qilganlarning asosiy qismi 1 yoki 2-yil davomida barcha bilimlarni olishga harakat qiladi. Bu esa jismoniy, ruhiy siqilishlarga sabab bo'ladi. Natijada talabalik baxtiga musharraf bo'lganlar o'z qarashlariga ko'ra asosiy maqsadiga erishib bo'ladi va bilim olishda davom etish darajasi keskin pasayadi.

Bu holatda biz amalga oshirgan izlanishlarimiz davomida Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijasiga ko'ra bir qator ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Surxondaryo viloyati bo'yicha olib borilgan so'rov natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, so'rovnomada ishtirok etgan 200 nafar talabalarning 37 nafari 1-yil, 105 nafari 2-yil, 26 nafari 3-yil va undan ortiq yil davomida qo'shimcha repititorlik kurslarida tahsil olgan. 32 nafar talaba esa o'zi mustaqil shug'ullanganligini qayd etgan. Ushbu talabalardan ayni davrda ta'lim olish uchun intilishi so'ralganda, aksariyatida bilim olishga qiziqish pasayganligini kuzatish mumkin. Sababi bir necha yillar davomida olish mumkin bo'lgan bilimning qisqa davrda zo'riqish bilan olinganligi o'z ta'sirini ko'rsatganligini bildirishgan. Ma'lum qism talabalar, ayniqsa maktab davridan boshlab shug'ullanib kelayotgan, yaxshi o'qib kelgan talabalar talaba bo'lgandan keyin ham doimgidek bilim olishga qiziqishi borligini bildirishgan. Zero, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar kelajakda o'z samarasini, foydasini keltirishi lozim. Bunga esa bilim, ko'nikma, innovatsion g'oyalarga ega bo'lgan shaxs, barkamol, sog'lom va yetuk kadrlar orqali erishiladi.

So'rovnomada shuningdek yuqori ball olgan talabalar qo'shimcha dars olish uchun qancha mablag' sarflaganligi haqidagi savolga 1-yil davomida faqatgina dars uchun to'lovlar 4 000 000 so'mdan 14 000 000 so'mgacha mablag' sarflaganligiga guvoh bo'lamiz. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki bakalavr diplomiga ega talabalarning keyingi faoliyati o'rganilganda yoshligidan bilim olishga qiziqishi yuqori bo'lganlar, chekka va tog'li hududlardan bo'lgan bitiruvchilar aniq ish joylariga joylashgan va ijobiy tavsiyaga ega bo'lgan. Asosan shaharda yashovchi va o'rtacha ta'lim olgan talabalar o'zlarini tadbirkorlikda sinab ko'rayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Xulosa

Mazkur maqola doirasida amalga oshirgan nazariy tahlillarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

Izlanishlar natijasiga ko'ra bir qator taklif va tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

Inson kapitaliga sarmoya kiritishdan jamiyat ham katta manfaat ko‘radi. Qolaversa, ta‘limga kiritiladigan sarmoya ijtimoiy tengsizlikka sekin-asta barham berishi mumkin. Misol uchun, aksariyat mamlakatlarda nisbatan o‘ziga to‘q oilalarda tug‘ilgan farzandlar bolalikdanoq turli imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va ular butun umri davomida talay afzalliklarga ega bo‘ladilar, aksincha, nochorroq oilalar farzandlari bunday imkoniyatlardan foydalana olmaydi.

Inson kapitali o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmaydi, balki davlat tomonidan rivojlantirilishi zarur. Shu ma’noda strategiyada inson kapitaliga e’tibor qaratilib, barcha darajada ta‘lim sifatini oshirish va qamrab olish, uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirish, iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash tizimi moslashuvchanligini ta‘minlash masalasiga alohida urg‘u berilgan.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakat aholisining oliy ma‘lumot bilan qamralganlik darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.

Birinchi, ayni vaqtda talab yuqori bo‘lgan sohalar bo‘yicha yangi oliy ta‘lim muassasalari (OTM) va xorij mamlakatlarining nufuzli OTM filiallarini, shuningdek nodavlat oliy o‘quv yurtlarini ochish.

Ikkinchi, talabalarni oliy o‘quv yurtlariga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilish uchun belgilangan kvotalarni bosqichma-bosqich bekor qilish.

Uchinchi, yoshlarga maktab davridan ma‘lum bir kasb-hunar o‘rganib chiqishini ta‘minlash. Bu holatda btiruvchi OTMga kirish uchun yo‘nalish tanlashda aniq maqsadga ega bo‘ladi.

To‘rtinchi, yoshlarda axborot texnologiyalari va muhandislik sohalariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va bu borada ma‘lum imkoniyatlar yaratish.

Jamiyat rivoji va farovonligida muhim omil bo‘ladigan inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali aholining farovon hayot kechirishi, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi“. PF-60-son. 28.01.2022
2. Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. “O‘zbekiston-2035 forumi” materiallari.
4. Akramova Sh.G. Inson kapitaliga investitsiya darajasini baholash // “Iqtisod va moliya” jurnali. № 8, 2012.
5. Лапухина, А.Ю. Человек труда и его качественная характеристика // сборник научных статей докторантов, аспирантов и соискателей. – Чебоксары: Изд-во Чувашского университета, 2010. – Издание. 5. – С. С. 72-79.